





HUQUQ FALSAFASI TARIXI

1. Siyosiy - huquqiy xodisalarga falsafiy yondashish, ularning falsafiy tahliliga oid bir qator mumtoz g'oyalar
2. Antik dunyo falsafiy merosi. Gomer, Gesiod, Pifagor, Geraklit, Demokrit; sofistlar - Sokratning adolat, huquq va qonun to'g'risidagi asosiy qoidalari
3. Platonning ideal davlat va oqilona, adolatli qonunlari, Aristotel ijodida huquq va qonunning ratsional-nazariy tahlili.
4. Taqsimlovchi adolat; Baravarlashtiruvchi adolat. Sitseron ta'limotida adolat va huquq (tabiatga binoan huquq, tabiiy huquq) manbai sifatida.
5. Mustaqil fan - yurisprudensiyaning yaratilishi Qadimgi Rim tafakkurining jiddiy yutug'i sifatida



Siyosiy-huquqiy hodisalarga falsafiy yondashish, ularning falsafiy tahliliga oid bir qator mumtoz g'oyalarni antik dunyo falsafiy ta'limotlarida uchratamiz.

Gomer yashagan davrdagi Yunonistonda (mil.avv. 2-ming yillikning oxiri) ellinlar dike (haqiqat, adolat), temis (odat, odat huquqi), time (or-nomus, faxr), nomos (qonun) kabi tushunchalarni qo'llashgan. Gomer tushunchasida o'z tabiatiga ko'ra ilohiy bo'lgan adolat huquqiylikning ob'ektiv asosi va mezoni sifatida namoyon bo'lgan. Faqat o'sha davrda adolatga nisbatan qarashlarga muvofiq keladigan holatgina huquq sifatida qabul qilingan




Adolat va qonunning yagona ildizlari va negizlari haqidagi qoidani Gesiod (mil.avv. VII asr) o'zining «Teogoniya» va «Mehnatlar va kunlar» poemalarida qu'yidagi tarzda ifodalaydi: Adolat (Dike) va Ezgu qonunchilik (Evnomiya) - oliy olimpiya xudosi Zevs va odil sudlov xudosi Femidaning qizlari bo'lgan ikkita opa-singil tangrilardir. Gesiod ham Gomerga o'xshab adolatni kuch va zo'ravonlikka qarshi qo'yadi.

Adolat va qonunning o'zaro bog'liqligi haqidagi tasavvurlar keyinchalik «etti donishmand» uyushmasi ijodida ham rivoj-lantiriladi. Ularning hamma ishlarida va qilmishlarida muayyan «me'yor»ga va «o'rtalik»ka amal qilish zarurligi haqidagi fikrlar va qisqa hikmatlari kishilarning fe'l-atvorini tartibga solib turadigan me'yorlarning ob'ektiv tabiati to'g'risidagi tasavvurlarni chuqurlashtirdi.




Odamlarning ijtimoiy va siyosiy hayotini lozim darajada ko'rish uchun adolat va huquqning ob'ektiv me'yorini izlashlar Pifagor va uning izdoshlari (mil. avv. VI-V asr) tomonidan davom ettirilgan. Pifagorchilar «lozim bo'lgan me'yorlar» va mutanosiblik tushunchalari orqali muayyan proporsiyani (o'z tabiatiga ko'ra sonli), ya'ni qandaydir baravarlashtirish, tenglikni nazarda tutishgan edi. Bu hol, o'z navbatida, huquqiy tenglik, huquqning teng me'yori, rasmiy tenglik g'oyalarining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Pifagorchilar tartibsizlik va qonunsizlikni eng yomon odat deb hisoblashgan va odam o'zining tabiatiga ko'ra tegishli rahbarliksiz ish yurita olmaydi deb ta'kidlashgan.



Polis (davlat) qonunlarining ob'ektiv umumjahon qonuniyatlari bilan bog'liqligiga doir teran konsepsiya Geraklit (mil. avv. 530-470 yillar) tomonidan rivojlantirilgan. Geraklit fikricha, umumiy qonuniyatlarni bu dunyodagi hamma voqeahodisalarning negizida yotadigan abadiy logosdir. Dunyodagi hamma narsa ana shu logosga binoan, kurash orqali va zaruriyatga ko'ra sodir bo'ladi. Adolat umumiy ilohiy logosga amal qilishdan iborat.



Qonun va davlat to'g'risidagi inson va insoniyat jamiyatining sababli- bog'lanishli, tabiiy (noilohiy) rivojlanishning sun'iy natijasi sifatidagi tasavvur ilk marta atomist faylasuf Demokrit (mil. avv. 470-366 yillar) tomonidan keng asoslantirib berildi. Uning fikricha, jamiyat, polis va uning qonunlari tabiiy rivojlanish natijasi bo'lish bilan bir qatorda, odamlar tomonidan yaratilgan sun'iy uyushmalardir. Ular tabiat tomonidan tayyor holda berilgan emas, balki odamlar tomonidan ularning ongsiz yashashdan madaniy hayotga tomon bosib o'tilgan evolyutsiyasi jarayonida shakllantirilgan.



Huquq bilan qonunning tabiiy negizlarini inson va insoniyat jamiyatining o'z tabiatidan izlashlar milodan avvalgi V-IV asrlarda sofistlar tomonidan rivojlantirilgan. Sofistlar qarashlarining asosiy tamoyili Pratorgor (mil. avv. 481-411 yillar) o'z qarashlarida ifodalab bergan. Uning fikricha, davlat va qonunlar - tabiat in'omlari emas, balki donolarning kashfiyotlaridir. Tabiiy va sun'iyning farqlanishi va ularning o'zaro nisbati Pratorgorning talqin etishicha shunday ma'no kasb etadiki, sun'iy (davlat, qonunlar, siyosiy, yaxshilik) - inson bilimining mevasi, odamning yuksak yutug'i, uning tabiatning qolgan qismidan yuksalishidir.



Sofist Gorgiy (mil. avv. 483-375 yillar) fikricha, yozilgan qonunlar -insonning nafis ixtirosi, ya'ni qandaydir sun'iy narsa. Gorgiy «yozilgan qonun»dan yozilmagan «adolatni» farqlagan va uni «ishlarning mohiyatini» «ilohiy va umumiy qonun» deb ta'riflagan. Ular o'rtasidagi bunday tafovut, ular o'rtasida keskin farq va ziddiyat mavjudligini anglatmaydi. Gorgiy o'zi yozilmagan qonunlar tarafdori bo'lsa-da, bari bir adolatning o'zini qadriyatga ko'ra ulardan yuqori qo'yadi.



Sofist Gippiy (mil.avv. 460-400 yillar) tabiat (fyusis) bilan qonunni (nomos) bir-biriga qarshi qo'ygan. U tabiiy huquq deganda «har bir mamlakatda bir xilda ijro etiladigan» yozilmagan qonunlarni tushunadi. Odamlar qabul qiladigan qonunlarning qandaydir noijodiy va zaruriyatga ega emasligini ta'kidlaydi




Sofist Antifont (mil.avv. 400 yillar) barcha odamlarda bir xil tabiiy ehtiyojlar borligi asosida barcha odamlarning tabiatiga ko'ra tengligi haqidagi qoidani asoslaydi.

Odamlarning teng emasligi tabiatdan emas, balki insoniy qonunlardan kelib chiqadi. Antifon polis qonunlari bilan tabiat amrlarini (tabiiy huquq) farqlar ekan, bunda tabiat amrlarini ustun qo'yadi.

Gorgiyning shogirdi bo'lgan Alkidam Eleyskiy (mil.avv. IV asrning 1-chi yarmi) hamma odamlar, shu jumladan polisning erkin a'zolari bilan bir qatorda qullar ham tengdir, degan fikrni rivojlantiradi. Qo'yidagi mashhur so'zlar unga tegishli deb hisoblanadi: «Xudo hammani erkin qilib yaratgan, tabiat esa hech kimni qul qilib yaratmagan». Huquqni tushunish ma'nosida bu fikrlar hamma odamlarning tabiiy-huquqiy tengligini e'tirof etish nuqtai nazaridan qonunlarning tanqidini anglatar edi.



Huquq bilan qonunning o'zaro nisbati, rasmiy polis ko'rsatmalarining ob'ektiv tabiati, adolat va qonunchilik haqidagi nazariy qarashlarning bundan keyingi chuqurlashtirilishi Suqrotning (mil.avv. 469-399 yillar) nomi bilan bog'liqdir. Uning ijtimoiy siyosiy va huquqiy muammolarga nisbatan falsafiy yondashuvining asosida umuman bilishning belgilovchi, imperativ-regulyativ ahamiyati to'g'risidagi ratsionalistik tasavvur yotadi. Suqrot ma'naviy va huquqiy muammolar muhokamasini mantiqiy definitsiyalar va tushunchalar darajasiga ko'targan va ushbu sohada o'zining nazariy tadqiqotlariga asos solgan.



Suqrotning adolat, huquq va qonun to'g'risidagi asosiy qoidalari uning shogirdi Platon (mil. avv. 427-347 yillar) tomonidan rivojlantiriladi. Platon falsafasiga binoan «haqiqiy borliq - bu qandaydir aql baravar qilmaydigan va jisimsiz g'oyalardir»; hissiyot qabul qiladigan empirik jismlar, narsalar va hodisalar - haqiqiy emas, chunki ular umuman borliqqa emas, balki qandaydir harakatchan, shakllanishga taalluqlidir.

Ideal davlat va oqilona, adolatli qonunlar Platon tomonidan g'oyalarning amalga oshirilishi va g'oyalar dunyosining yerdagi, siyosiy va huquqiy hayotda imkoni boricha, ko'proq tatbiq etilishi sifatida talqin qilinadi. Uning nazarida adolat, har bir boshlang'ich bo'g'in (har bir tabaqa va davlatning har bir a'zosi) o'zining ishi bilan shug'ullanishi kerak va boshqa ishlarga aralashmasligi lozim, Masalan, Platon ideal davlatdagi adolatni tavsiflab shunday yozadi: «Har bir kishining o'z ishi bilan shug'ullanishi bu adolatli bo'ladi», «Adolat har kimning o'z ishi bo'lishidan va o'z ishini bajarishidan iboratdir». Platon nazarida adolat «hech kim o'zganing molini egallab olmasligini va o'z molidan mahrum bo'lmasligini» talab qiladi. Uning nazarida, adolat «lozim darajadagi me'yor»ni, muayyan tenglikni taqozo etadi.





ARISTOTEL ADOLAT TUSHUNCHASINI IKKI TURINI ALOHIDA AJRATIB KO'RSATADI.

Taqsimlovchi adolat - bu jamiyat a'zolari o'rtasida bo'linishi mumkin bo'lgan hamma narsani (hokimiyat, obro'-e'tibor, to'lov va shu kabilar) taqsimlashda adolatning namoyon bo'lishi. Bu erda turli shaxslar tegishli ne'matlarga teng va noteng ega bo'lishi mumkin.

Baravarlashtiruvchi adolat - ayirboshlash sohasida amal qiladi va ayirboshlash predmeti bo'lgan narsaning baravarlash-tirilishida namoyon bo'ladi. Adolatning bu turi fuqarolik-huquqiy bitimlar, zararning qoplanishi, jinoyat va jazo sohasida qo'llaniladi.



Tabiiy huquq nuqtai nazaridan olganda huquq, qonun va davlat to'g'risidagi falsafiy ta'limot Siseron (mil. avv.106-43 yillar) tomonidan ancha jiddiy tarzda ishlab chiqilgan. Siseronning fikricha, huquq negizida tabiatga xos bo'lgan adolat yotadi. Bunda ushbu adolat umuman tabiatning va inson tabiatining abadiy, o'zgarmas va ajralmas xususiyati sifatida tushuniladi. Siseron ta'limotida adolat va huquq (tabiatga binoan huquq, tabiiy huquq) manbai sifatida «tabiat» deganda, butun koinot, insonni o'rab turgan jismoniy va ijtimoiy olam, insoniy munosabatlar va jamoatchilik shakllari, shuningdek, odamning jismoniy va ruhi, uning tashqi va ichki dunyosini qamrab oladigan inson borlig'ining o'zi nazarda tutiladi. Uning fikricha, ushbu butun «tabiat»ga (uning ilohiy ibtidosi tufayli) aql-idrok va qonunga muvofiqlik, muayyan tartib xosdir.

Mustaqil fan - yurisprudensiyaning yaratilishi qadimgi Rim tafakkurining jiddiy yutug'i bo'ldi. Dunyoviy yurisprudensiyaning paydo bo'lishi mil. avv. III asr boshlariga borib taqaladi. Rimlik yuristlar umumiy huquq nazariyasi, shuningdek, alohida yuridik fanlar (fuqarolik huquqi, davlat va ma'muriy huquq, jinoyat huquqi xalqaro huquq) sohasidagi huquqiy muammolarning keng majmuini astoydil ishlab chiqishgan. Mumtoz davrdagi mashhur yuristlar ichida Gay (II asr), Papinian (II- III asr), Pavel (II-III asr), Ul'pian (II-III asr) va Modestian (II- III asr)lar eng ko'zga ko'ringan yuristlardan bo'lgan.

Rimlik yuristlarning faoliyati asosan huquqiy amaliyot ehtiyojlarini qondirishga va huquqning amaldagi me'yorlarini huquqiy muloqotning o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan edi.





Rimlik yuristlar huquqning ommaviy huquq va xususiy huquqqa bo'linishi haqidagi prinsipial muhim qoidani ishlab chiqadi. Ul'pianning fikricha, ommaviy huquq «Rim davlati holatiga tegishli bo'lib, xususiy huquq esa alohida shaxslar foydasiga tegishlidir». Rimlik yuristlar huquqni ommaviy huquq bilan xususiy huquqqa bo'linishi haqidagi tamoyilni ishlab chiqishgan bo'lsa-da, lekin na Rim huquqining tizimi, na Rim yurisprudensiyasi ushbu tamoyilga muvofiq qo'rilmagan. Bu keyinchalik G'arbiy Evropada mamlakatning ancha rivojlangan va tabaqalash-tirilgan davrida amalga oshirilgan.



Umuman, rimlik yuristlarning ijodiga baho beradigan bo'lsak, shuni aytish mumkinki, ko'p jihatdan aynan ular ishlab chiqqan yuridik huquqni tushunish tufayli Rim yurisprudensiyasi va Rim huquqi huquq nazariyasi va tarixida katta rol o'ynagan va hozir ham o'z qadriga ega.